

Pedagogika fanidan Talabalar Respublika fan olimpiadasining 1-bosqichi yakunlari bo'yicha ma'lumot

✘ Respublika Olimpiadasini o'tkazish kafedraning dolzarb va mas'uliyatli masalalaridan ekanligini va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" vazifalarini bajarishda bu masalaga keng e'tibor berilayotganligini inobatga olib, "Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi" kafedrası 2019 yil 23 mart kuni bo'lib o'tgan "Pedagogika" fani bo'yicha 1-bosqich olimpiada natijalarini ma'lum qildi. 1-bosqich olimpiadasida institutning Kasb ta'limi (Suv xo'jaligi va melioratsiya; Yer tuzish va yer kadastri, Qishloq va suv xo'jaligini elektrlashtirish, Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish) bakalavriat yo'nalishlaridan 12 nafar talabalari ishtirok etishdi. Respublika Olimpiadasini yuqori saviyada "Nizom" talablari asosida o'tkazish talab darajasida amalga oshirildi. "Pedagogika" fanidan olimpiada 1-bosqich natijalariga asosan Kasb ta'limi (Suv xo'jaligi va melioratsiya) bakalavriat ta'lim yo'nalishi 2-kurs 18-guruh talabasi Imomaliyeva SohibaOlimjon qizi 348 ball natija bilan birinchi, Kasb ta'limi (Qishloq va suv xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish) bakalavriat yo'nalishi 3 kurs 4-guruh talabasi Axmedov Ma'mur 326 ball natija bilan 2-o'rinni, Kasb ta'limi (Yer tuzish va yer kadastri) bakalavriat yo'nalishi 3 kurs 10-guruh talabasi Safarova Dildora 314 ball bilan 3-o'rinni egalladi.

Kafedra mudiri Z.Ismialova